

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Sh.P.Quatbeva

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xo‘jayli tumani MMTB bo‘limiga qarashli 22-sonli
umumta’lim maktabi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga oid muhim jihatlar tahlil qilingan. O‘quvchilarning motivatsiyasi, his-tuyg‘ulari, iroda va ixtiyoriyligi, shuningdek, ularning o‘zaro munosabatlari va o‘qituvchi bilan aloqalari o‘rganilgan. Maqola o‘quv faoliyatining psixologik mexanizmlarining shakllanishi va shaxsning ichki dunyosining rivojlanishidagi rolini ochib beradi. Shu bilan birga, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga va o‘z-o‘zini baholashga yo‘naltirish, ijtimoiy ko‘nikmalarini mustahkamlashning ahamiyati ta’kidlangan.

Kalt so‘zlar: Kichik maktab yoshi, o‘quv faoliyati, motivatsiya, his-tuyg‘ular, iroda, ixtiyoriylik, o‘z-o‘zini baholash, o‘quvchilar o‘zaro munosabatlari, shaxs psixologiyasi, maktab jamoasi.

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF PRIMARY SCHOOLCHILDREN

Abstract: This article analyzes important aspects of the psychological and social development of primary school-aged students. It examines students' motivation, emotions, willpower and volition, as well as their interpersonal relationships and interactions with teachers. The article reveals the role of psychological mechanisms in learning activities and the development of the inner world of the individual. Additionally, it emphasizes the importance of guiding students towards independent thinking, self-assessment, and strengthening social skills.

Key words: primary school age, learning activity, motivation, emotions, willpower, volition, self-assessment, peer relationships, personality psychology, school community.

Kichik maktab yoshi bolaning maktabga ilk bor kelgan vaqti bilan belgilanadi. Bu davrda pubertetgacha bo‘lgan barqaror jismoniy rivojlanish jarayoni davom etadi. Bolalarda nafaqat bo‘y o‘sishi va vazn ortishi kuzatiladi, balki bu tashqi o‘zgarishlar ichki organik o‘zgarishlar bilan birgalikda kechadi. Skelet suyaklarining o‘sishi va yetilishi davom etadi, biroq bu jarayonlarning sur‘ati bolalar orasida farqlanishi mumkin. Mushaklar yiriklashadi va kuchliroq bo‘ladi. Shunga mos ravishda jismoniy

kuch va chidamlilik ham ortadi. Bosh miyaning tafakkur va ong jarayonlarini boshqaruvchi peshona bo'laklari faolroq ishlay boshlaydi. Bu esa bolaning murakkab harakatlar va yuqori darajadagi koordinatsiyani talab qiladigan faoliyatlarga qo'shilishiga imkon yaratadi.

Kichik maktab yoshidagi bolaning yetakchi faoliyati o'quv faoliyati bo'lganligi sababli, u maktabga kelgan paytdan boshlab bu faoliyat uning barcha munosabatlar tizimiga vositachilik qila boshlaydi. D.B. Elkoninning fikricha, bu faoliyatning roli muhim, chunki, birinchidan, bolaning jamiyat bilan asosiy munosabatlari aynan shu faoliyat orqali shakllanadi; ikkinchidan, unda maktab yoshidagi bola shaxsining asosiy fazilatlari va alohida psixik jarayonlari rivojlanadi [10, 246-b].

L.V. Obuxovaning ta'kidlashicha, agar bola o'z psixik jarayonlari va xulq-atvorini boshqarishga o'rgangan bo'lsa, u holda o'quv faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshira oladi. Bu esa bolaning bevosita "xohlayman"ini o'qituvchi va maktab intizomi talab qilgan "kerak"ka bo'ysundirishiga yordam beradi hamda ixtiyoriylikning psixik jarayonlarning yangi sifati sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Bu holat bola tomonidan harakat maqsadini ongli belgilash, qiyinchilik va to'siqlarni yengib o'tishda ataylab vositalarni izlash va topishda yaqqol namoyon bo'ladi.

Nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish zarurati, og'zaki hisobot va baholash talablari boshlang'ich sinf o'quvchilarida harakatlarni ichki rejada rejalashtirish va bajarish qobiliyatining shakllanishiga xizmat qiladi. Mulohaza namunalarini farqlash va ularni mustaqil tuzishga intilish, o'quvchilarda o'z fikr va harakatlarini go'yo chetdan turib tahlil qilish va baholash ko'nikmasining rivojlanishini ta'minlaydi. Bu ko'nikma shaxsning o'z fikr va xatti-harakatlarini faoliyat sharoitlariga muvofiqlik nuqtayi nazaridan xolisona tahlil qilishiga imkon beruvchi refleksiya sifatida namoyon bo'ladi.

Ixtiyoriylik, ichki harakat rejasi va refleksiya — bu kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tomonidan o'quv faoliyati jarayonida shakllanadigan asosiy psixologik yangiliklardir.

O'quv faoliyati mazmuni, tuzilishi va bajarilish shakli jihatidan murakkab bo'lib, o'quvchida darhol shakllanmaydi. Maktab hayotining aynan dastlabki yillarida o'qish ko'nikmasiga asos solinadi. Shuning uchun o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan tizimli ishlar orqali o'quvchining o'rganishga oid ko'nikmalari asta-sekin rivojlanadi [7, 310-b].

D.B. Elkonin ta'kidlaganidek, o'quv faoliyati bir necha o'zaro bog'liq tarkibiy qismlardan iborat bo'lgan ma'lum tuzilishga ega:

- **O'quv vazifasi** — o'quvchi egallashi kerak bo'lgan harakat usulining mazmuni.
- **O'quv harakatlari** — bu harakat usulining tasavvurini shakllantirish va amalda qo'llash jarayonlari.
- **Nazorat** — bajarilgan harakatni namuna bilan solishtirish.

• **Baholash** — natijani aniqlash va o'zgarish darajasini baholash.

V.S. Muxina ta'kidlaganidek, o'quv faoliyatining mazkur tuzilmasi kengaytirilgan va yetuk shaklda taqdim etilgan bo'lsa-da, u darhol bunday holatga erishmaydi. Bu tuzilma o'quvchilarda bosqichma-bosqich shakllanadi va boshlang'ich maktab o'quvchisining o'quv faoliyati hali bu darajadan ancha uzoqda bo'ladi. Chunki o'quv faoliyatining barcha tarkibiy qismlarini yetarli darajada egallamaslik maktabdagi ko'plab qiyinchiliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin [6, 361-b].

O'quv vazifasining asosiy xususiyati shundaki, u o'quvchining turli amaliy masalalarni nazariy jihatdan umumlashtirilgan usulda hal qilish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. O'quv vazifasini o'quvchiga qo'yish — uni turli vaziyatlarda masalani hal qilishning umumiy usulini izlashga yo'naltiradi.

O'quv faoliyati jarayonida bolalar turli xil harakat turlarini bajaradilar. Ular orasida o'quv harakatlari alohida ahamiyatga ega. Bu harakatlar orqali o'quvchilar masalalarni yechish usullarini va ularni qo'llash shartlarini tushunadilar va o'zlashtiradilar. O'quv harakatlari ham predmetli, ham aqliy shaklda bajarilishi mumkin. Ushbu harakatlar sistemasini egallamasdan turib, bola o'quv materialini ongli ravishda o'zlashtira olmaydi. Shu sababli o'qituvchining vazifasi — o'quv harakatlari va ularni tashkil etuvchi operatsiyalar sistemasini maxsus yondashuv va sabr-toqat bilan shakllantirishdir.

O'quv vaziyatlarida samarali ishlash uchun taqqoslash, tashqi namunaga asoslangan solishtirish va o'z-o'zini nazorat qilish kabi nazorat harakatlarini bajarish zarur bo'ladi. Nazorat esa, o'z navbatida, bolaning faoliyatining turli bosqichlarida uni tartibga solish va baholash funksiyalari bilan uzviy bog'liqdir. Boshlang'ich sinflarda eng ko'p uchraydigan baholash turlari — bu retrospektiv baholash va o'z-o'zini baholash bo'lib, ular erishilgan natijalarning tahliliga asoslanadi. Boshqa bir shakl — bu bolaning o'z imkoniyatlarini baholashga asoslangan prognostik o'z-o'zini baholashdir. Aynan shu bosqichda bola vazifa shartlarini o'z tajribasi bilan bog'laydi, shu sababli o'z-o'zini baholash refleksiya tayanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yetakchi faoliyatning o'zgarishi natijasida motivlarning nisbatan barqaror strukturasi shakllanadi va unda o'quv faoliyati bilan bog'liq motivlar yetakchi o'rinni egallaydi. Bu motivlarning bir qismi ta'lim jarayonida shakllanib, o'quv faoliyatining mazmuni va shakllari bilan bog'liq bo'ladi; qolganlari esa o'quv jarayonidan tashqarida shakllanadi [4, 124-b].

A.N. Leontev motivlarni bir necha mezonlarga ko'ra tasniflaydi: anglangan va anglanmagan, faoliyatni real ravishda rag'batlantiruvchi yoki nafaol, shuningdek, yetakchi va ikkinchi darajali motivlar. Ushbu motivlarning barchasi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning faoliyatida mavjud bo'lib, o'quv faoliyati bilan bog'liqdir.

Biroq bu yosh davrida ular har doim ham yetakchi motivlar sifatida namoyon bo'lmaydi.

Bu yoshdagi bolalarda quyidagi uch asosiy guruh motivlar ustunlik qiladi:

1. keng ijtimoiy motivlar;
2. tor shaxsiy motivlar;
3. o'quv-bilish motivlari.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning keng ijtimoiy motivlari, odatda, o'z-o'zini takomillashtirish (masalan, madaniyatli va bilimli inson bo'lish) hamda o'z taqdirini mustaqil belgilash (maktabdan keyingi ta'limni davom ettirish yoki kasb tanlab, mehnat faoliyatiga kirishish) istagi orqali namoyon bo'ladi. Bolaning ta'limning ijtimoiy ahamiyatini anglab yetishi — ijtimoiy ustanovkalar ta'siri natijasida shakllanib, maktabga nisbatan shaxsiy tayyorgarlik va undan ijobiy kutishlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu motivlar odatda mazmunan anglash mumkin bo'lgan va kechiktirilgan, ya'ni uzoq muddatli maqsadlar bilan bog'liq bo'ladi. Ular tarkibida burch va mas'uliyat hissi ham shakllanadi. Garchi bu hissiyotlar dastlab bolalar tomonidan to'liq anglanmasa-da, o'qituvchining topshiriqlarini vijdonan bajarish, uning talablariga javob berishga intilish shaklida amaliy ifodasini topadi [7, 261-b.].

Tor shaxsiy motivlar esa, qanday bo'lmasin yaxshi baho olish, o'qituvchining maqtoviga sazovor bo'lish, ota-onaning roziligini qozonish, jazodan qochish yoki mukofotga erishish (bu farovonlik motivlariga kiradi) kabi holatlarda namoyon bo'ladi. Shuningdek, tengdoshlari orasida ajralib turish, sinfda ma'lum bir mavqega ega bo'lish kabi istaklar ham (obro'li motivlar) ushbu turkumga kiradi.

O'quv-bilish motivlari o'quv faoliyatining o'zida mujassamlashgan bo'lib, ta'lim mazmuni va jarayoni, eng avvalo, faoliyat usulini egallash bilan bog'liqdir. Ular bilish qiziqishlarida, bilish jarayonidagi qiyinchiliklarni yengishga intilishda va intellektual faollikni namoyon qilishda o'z ifodasini topadi. Ushbu guruh motivlarining rivojlanishi bolaning maktabga bilish ehtiyoji bilan kelish darajasiga hamda o'quv jarayonining mazmuni va tashkil etilish darajasiga bog'liqdir.

Aynan ta'lim mazmuni va jarayoni bilan bog'liq motivatsiya asosida bilish ehtiyoji shakllanadi. Har bir bolada bilish ehtiyojining rivojlanish darajasi turlicha bo'lib, ba'zilar u aniq va "nazariy" yo'nalishga ega bo'lsa, boshqalarida amaliy yo'nalish ustunlik qiladi, yana uchinchi guruhda esa bu ehtiyoj juda zaif ifodalanadi.

O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchining hissiy-irodaviy sohasini ham tubdan o'zgartiradi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning his-tuyg'ulari ongliklik va vazminlik yo'nalishida o'sadi, ular his-tuyg'ular va harakatlarning barqarorligi bilan ajralib turadi. Maktabga kelgach, maksimal hissiy reaksiyalar o'yin va muloqotdan ko'ra, faoliyat jarayoni va uning natijalariga, shuningdek, atrofdagilarning bahosi va yaxshi munosabatiga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga qaratiladi.

P.M. Yakobsonning tadqiqotlariga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'z his-tuyg'ularini anglash va shunga mos ravishda boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish hali to'liq rivojlanmagan. Ular ko'pincha turli his-tuyg'ularni ifodalovchi yuz mimikasini to'g'ri idrok eta olmaydi, atrofdagilarning hissiyotlarini noto'g'ri talqin qilishlari esa bolaning noadekvat javob reaksiyalariga olib keladi. O'quv faoliyati jarayonida kundalik maktab majburiyatlari, o'qituvchining talab va qoidalari hamda jamoaviylik kichik maktab o'quvchisini o'zini tobora vazminroq tutishga majbur qiladi va shu bilan birga u o'z xatti-harakatlarini nazorat qilishni o'rganadi [3, 220-221 b].

Kichik maktab yoshidagi bolalarda axloqiy, intellektual va estetik his-tuyg'ularning rivojlanishida sezilarli farqlanishlar yuzaga keladi. Shu bilan birga, o'quv faoliyati jarayonida duch kelinadigan qiyinchiliklar, erishilgan muvaffaqiyatlar va ularning yetishmovchiliklarini yengish faol bilish qiziquvchanligi va yangilikni his qilish kabi intellektual his-tuyg'ularni shakllantirishga yordam beradi. Maktab tajribasidan ma'lumki, o'quvchilarning intellektual his-tuyg'ulari ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etishda ular uchun muhim ehtiyojga aylanadi [4, 129-b.].

Kichik maktab yoshidagi his-tuyg'ular iroda bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanadi. Iroda tashqi yoki ichki to'siqlarni yengib, harakatlarni amalga oshirish yoki ularni davom ettirish qobiliyatida, shuningdek, zaif motivatsiyalangan faoliyatga qo'shimcha motiv-stimullarni shakllantirishda namoyon bo'ladi.

Ta'lim jarayonida harakatlarning ixtiyoriyligi shakllanadi, bu esa kichik maktab yoshining yangi psixik hosilasidir. Biroq, ixtiyoriylikning, ayniqsa tashqi yoki ichki to'siqlarni yengishni talab qiladigan irodaviy harakatlarning shakllanishi uzoq va murakkab jarayon hisoblanadi. Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish davomida kichik yoshdagi o'quvchida nafaqat irodaviy akt takomillashadi, balki shaxsning irodaviy sifatlari ham shakllanadi. Shu sababli, ushbu yoshda mustaqillik, qat'iyatlilik, chidamlilik va o'z kuchiga ishonch kabi irodaviy sifatlarni paydo bo'lishi mumkin. Bola o'zlashtirayotgan o'quv faoliyati bunday sifatlarni rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratadi. Tengdoshlari va kattalar bilan muloqot ham bu jarayonga sezilarli hissa qo'shadi.

Ma'lumki, o'quvchi yoshroq bo'lsa, u shunchalik mustaqil harakat qila olmaydi. Agar kattalar bolaning harakatlariga ishonib, uning erkinlik chegaralarini ruxsat etilgan doirada kengaytirsalar, o'quvchi mustaqil harakat qilishga va o'z kuchiga ishonishga tezroq o'rgangan bo'ladi.

Maktab o'quvchilarining adekvat xulq-atvorini shakllantirishda rahbarlik roli ayniqsa kattalarga, xususan, o'qituvchilarga tegishlidir. Chunki kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ko'pincha kattalarning talablariga bajarib, bo'ysunishga moyil bo'ladilar. Maktab ta'limining boshida bolalar ko'pincha xulq-atvor qoidalarini buzadilar, ammo bu ko'pincha ongli emas, balki impulsiv xatti-harakatlardan kelib

chiqadi. Impulsivlik esa bu yoshdagi yuqori emotsionallik natijasi sifatida, bolani yorqin va kutilmagan qo'zg'atuvchilarga, yangiliklarga tezda e'tiborini qaratishga undaydi. Uchinchi sinfga kelib bu impulsivlik kamroq ko'zga tashlanadi, biroq ba'zi hollarda u bolaning individual xususiyatiga aylanib qoladi [8; 11-12 b].

Qat'iyatlilik — xarakterning eng muhim irodaviy xislati bo'lib, u uchinchi sinfga kelib rivojlanadi va o'quvchilarga katta qiyinchiliklarga qaramay, o'qishda muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi. Ammo qat'iyatlilikni qaysarlikdan ajratib ko'rish zarur, chunki qat'iyatlilik ijtimoiy ma'qullangan yoki bola uchun qimmatli bo'lgan maqsadga erishish motivatsiyasiga bog'liq bo'lsa, qaysarlik esa shaxsiy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan bo'lib, maqsad uning qiymati va zaruriyatidan qat'iy nazar, unga erishishning o'zidandir.

L.F.Obuxova kichik maktab yoshidagi o'jarlikni himoya reaksiyasi sifatida namoyon bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi, ayniqsa, o'qituvchi o'z baholari va fikrlarini zaif asoslaganda, bolaning yutuqlari va ijobiy fazilatlariga emas, balki uning muvaffaqiyatsizliklari, xatolari va salbiy xarakter xususiyatlariga urg'u bersa [7, 268-b.].

Yuqorida aytilganidek, aynan yetakchi o'quv faoliyati orqali kichik yoshdagi o'quvchining muloqotga bo'lgan ehtiyoji qondiriladi, bu esa uning kattalar va tengdoshlari bilan munosabatlarini shakllantiradi. Tengdoshlari bilan do'stona munosabatlarni o'rnatish uchun bolada mustaqillik, o'ziga ishonch va tashabbuskorlik kabi fazilatlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning asosi o'zini ijobiy baholashdir. I.V.Dubrovinaning ta'kidlashicha, kichik maktab yoshida bolada, odatda, o'zining o'quv qobiliyatlari va umumiy imkoniyatlariga nisbatan muayyan o'zini o'zi baholash shakllanadi. Albatta, eng maqbul holat — bu o'z-o'zini baholashning yetarlicha yuqori va real bo'lishidir. Buning sharti — bolaning o'z qobiliyatlarini to'liq anglab, ularni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishidir [5, 430-b.].

E.Erikson “Bolalik va jamiyat” asarida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'z qobiliyatlarini eng yaxshi darajada namoyish eta olish prinsipial ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Chunki aynan shu yosh davri bola turli ko'nikmalarni egallashga intilishi bilan xarakterlanadi. Muvaffaqiyatga erishgan taqdirda bola o'z mahorati, malakasi va to'liqligi haqidagi ijobiy tasavvurni shakllantiradi, aks holda esa o'zini to'liq va yetarli his qilmaslik hissi rivojlanadi [11].

Har bir bola o'zining qadr-qimmati va betakrorligini his qilishi muhimdir, chunki vaqt o'tishi bilan bolalar o'zlarida o'qish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan, ammo shunday bo'lsa-da qadrlanadigan fazilatlarni ko'ra boshlaydilar. Shuning uchun kattalarning vazifasi — har bir bolaga uning potensial imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda yordam berish va har bir o'quvchi hamda uning sinfdoshlari uchun turli ko'nikmalarning qadrini ochib berishdir.

Kichik maktab yoshidagi bola uchun eng avvalo o'qituvchining shaxsi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Uning fikrlari va istaklari o'quvchi tomonidan katta e'tibor va tayyorgarlik bilan qabul qilinadi. Bolalar o'qituvchiga turli sabablar bilan murojaat qilishadi — oddiy va kichik sabablaridan tortib, chuqur va shaxsiy sabablarga qadar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'limning dastlabki bosqichida sinfdoshlarini "o'qituvchi orqali" idrok etadilar, ya'ni dars jarayonida o'qituvchining bahosi, yutuqlari yoki muvaffaqiyatsizliklari ta'kidlangan paytda ularga e'tibor qaratadilar. Buning sababi shundaki, birinchi sinf o'quvchilarida o'z o'rtoqlariga nisbatan axloqiy baho berish hali shakllanmagan, haqiqiy shaxslararo munosabatlar va jamoaviy aloqalar mavjud emas.

Ta'limning ikkinchi va uchinchi yillarida esa o'qituvchining shaxsi kamroq ahamiyatga ega bo'ladi, buning o'rniga bolalar o'rtoqlari va sinfdoshlari bilan yaqinroq aloqalar o'rnatadi. Ular birgalikda bilimlarni o'zlashtiradi, o'yinlarda, musobaqalarda va sayohatlar kabi ijtimoiy hayot jarayonlarida ishtirok etadilar [4; 126-b].

Boshqa bolalar bilan o'zaro munosabatlar o'rnatilishi bilan har bir o'quvchi o'zining haqiqiy individual xususiyatlarini kashf etadi. A. V. Petrovskiy kichik yoshdagi o'quvchilarning o'zaro munosabatlariga xos bo'lgan xususiyatlarni quyidagicha ta'kidlagan: do'stlik odatda tashqi hayotiy sharoitlar va tasodifiy qiziqishlarning umumiylikiga asoslanadi (masalan, bolalar bir partada o'tirishi, bir mahallada yashashi, sarguzasht adabiyotga qiziqishi va hokazo). Kichik yoshdagi o'quvchilarning ongi hali do'stlarni shaxsning muhim sifatleri asosida tanlash darajasiga yetmaydi, lekin ikkinchi-uchinchi sinflarda ular shaxs va xarakterning ayrim sifatlarini chuqurroq anglay boshlaydilar. Uchinchi sinfda birgalikdagi faoliyat uchun sinfdoshlarni tanlash zarurati tug'ilganda, o'quvchilarning taxminan 75 foizi boshqa bolalarning ma'lum axloqiy fazilatlariga asoslanib tanlov qiladi [2].

Kichik sinflardan boshlab sinf norasmiy gruppalariga bo'linishi kuzatiladi. Bu gruppalar ba'zan maktabdagi rasmiy birlashmalardan (masalan, zvenolar, yulduzchalar va boshqalar) ko'ra ko'proq ahamiyatga ega bo'ladi. Ularda ko'p jihatdan yetakchining ta'siri ostida o'z xulq-atvor me'yorlari, qadriyatlar va manfaatlar shakllanadi.

L.I. Bojovich fikricha, kichik yoshdagi o'quvchi shaxsining rivojlanishi uchun muhim bo'lgan narsa muloqotning alohida shakllari emas, balki maktab jamoasining o'zi hisoblanadi [1, 27-bet].

L.F. Obuxova esa boshlang'ich sinf o'quvchisida o'quv faoliyatida asosiy yosh xususiyatlari — intellektual refleksiya, ixtiyoriylik va harakatlarning ichki rejasining shakllanishi — yuzaga kelishini ta'kidlaydi. Shunga ko'ra, o'quv faoliyatini egallash jarayonida ushbu yoshdagi bolalarda barcha psixik jarayonlar qayta qurilib, takomillashadi. Shu sababli, kichik maktab yoshi psixologik mexanizmlarning amalda shakllanish davri hisoblanadi, ular birgalikda sifat jihatidan yangi, subyektning oliy birligini — shaxs birligini, ya'ni "Men-konsepsiya"ning paydo bo'lishini ta'minlaydi.

Bola xulq-atvorida, qiziqishlarida, qadriyatlarida va shaxsiy xususiyatlarida yanada ko'proq individuallik namoyon bo'ladi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishi o'qituvchining shaxsi, tengdoshlar bilan munosabatlar va o'quv faoliyati jarayonidagi motivatsiyalar bilan chambarchas bog'liq. Ushbu yoshda o'quvchilarda keng ijtimoiy, tor shaxsiy va o'quv-bilish motivlari shakllanadi, ular o'z-o'zini takomillashtirish, ijtimoiy qabul qilinish va bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, his-tuyg'ularni anglash va nazorat qilish, irodaviy sifatlarning rivojlanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'quv jarayoni va muloqot bolalarning qat'iyatlilik, mustaqillik, o'ziga ishonch kabi irodaviy fazilatlarini shakllanishida yordam beradi. Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun sinfdagi ijtimoiy muhit va sinfdoshlar bilan munosabatlar shaxsning ijtimoiy va psixologik rivojlanishida asosiy omil hisoblanadi. Shu bois, o'qituvchilar va kattalar bolaning o'zini anglash, o'z qobiliyatlarini rivojlantirish va ijtimoiylashish jarayonlariga faol yordam ko'rsatishi lozim. Bu yoshdagi o'quvchilarning muvaffaqiyatli rivojlanishi ularning shaxsiy va ijtimoiy salohiyatining rivojlanishi uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Божович Л.Ф. Проблемы формирования личности: Избранные психологические труды.- М: МПСИ, Воронеж: НПО «МОДЭК»,2001.
2. Возрастная и педагогическая психология / Под ред. А.В.Петровского.- М.: Просвещение ,1973.
3. Гамезо М.В., Герасимова В.С., Орлова Л.М. Младший школьник. Психодиагностика и коррекция развития. – М., 1995.
4. Гамезо М.В., Петрова Е.А., Орлова Л.М. Возрастная и педагогическая психология. – М.: Педагогическое общество России, 2003.
5. Дубровина И.В. Психология. - М.: Издательский центр «Академия», 2003.
6. Мухина В.С. Психология детства и отрочества. - М.: Институт практической психологии, 1998.
7. Обухова Л.Ф. Детская психология: теории, факты, проблемы. - М.: Тривола, 1995.
8. Познавательные процессы и способности в обучении. - М., 1990.
10. Эльконин Д.Б. Психическое развитие в детских возрастах. – М.: МПСИ; Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 2001.
11. Эриксон Э. Детство и общество. – СПб.: Ленато, АСТ, Фонд «Университетская книга», 1996.
12. Nishonova Z.T., Kamilova N.G., Abdullayeva D.U., Xolinazarova M.X. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2018.